

Korrupsiyaviy harakatlarni bartaraf etish yuzasidan amaliy choralar ko'rilmoqda

// 31.07.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korrupsiyaviy-harakatlarni-bartaraf-etish-yuzasidan-amaliy-c>



Bugungi kunda "O'zkimyosanoat" AJ va uning tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mineral o'g'itlarni mamlakatimizning barcha hududlaridagi iste'molchilarga qisqa vaqtlarda, mavsumiy zaruratga ko'ra, tezkorlik bilan yetkazib berish maqsadida joylarda vakolatli omborlar tashkil etilgan.

Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi xodimlari 25-31-iyul kunlari bevosita joylarga chiqib, tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mineral o'g'itlarning asosiy iste'molchilari bo'lgan fermer xo'jaliklari, shuningdek vakolatli omborlar rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.



Xususan, Jizzax va Xorazm viloyatlarida sohada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy harakatlar va uni bartaraf etish yo'llari yuzasidan suhbatlar olib borildi.



Shu bilan birga tarmoq korxonalari, joylardagi vakolatli omborlar hamda fermer xo'jaliklari o'rtasida yuzaga kelgan qarzdorlikni undirish maqsadida korxonalar, vakolatli omborlar va fermer xo'jaliklari o'rtasida 3 tomonlama shartnoma tuzish bo'yicha amaliy ishlar olib borildi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati